


## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2019-yil yanvar-dekabr uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, Xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o`shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo`yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko`proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo`ladi.


Hukumatning bu borada so`nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag`batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta`minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar 2019-yil yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 42,2 mlrd. AQSh dollariga yetishini va 2018-yilga nisbatan 8,7 mlrd. AQSh dollariga yoki 26,2 % ga oshishini ta`minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko`rsatkich sifatida qayd etildi.

O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI-  
NING TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(mlrd. AQSh  
dollari)



TSAda eksport hajmi 17,9 mlrd. AQSh dollariga (o`shish sur`ati – 128,0 %) va import hajmi 24,3 mlrd. AQSh dollariga (o`shish sur`ati – 124,9 %) yetdi. Hisobot davrida 6,4 mlrd. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(mlrd. AQSh  
dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.


Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, mamlakatning tashqi savdo faoliyatida mavsumiylik mavjud. Ya`ni, yil o`rtasida nisbatan yuqori faollik kuzatilib, oylik TSA iyul oyida o`zining eng yuqori qiymati – 4,8 mlrd. AQSh dollari bilan respublikaning tashqi savdo muvozanatini ta`minladi. 2019-yil dekabrda TSA 3,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi va yilni passiv savdo balansi bilan yakunladi.

**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORT-  
IMPORTNING  
OYLIK DINAMIK  
KO`RSAT-  
KICHLARI  
(2019-yilning  
oylari  
bo`yicha,  
mlrd. AQSh  
dollari)**



Tashqi savdo aylanmasining choraklar kesimida tahlillari shuni ko`rsatdiki, eng yuqori TSA 12 mlrd. AQSh dollari bilan 2019-yilning III choragiga to`g`ri kelib, 2017-2018 - yillarga nisbatan 1,5 barobar oshganini ko`rsatdi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI-  
NING  
CHORAKLIK  
DINAMIK  
KO`RSAT-  
KICHLARI  
(2017-2019-  
yillarning  
choraklari  
bo`yicha,  
mlrd. AQSh  
dollari)**



2017-2019-yillardagi TSA o`shishiga alohida e`tibor berish talab etiladi. Ya`ni, 2019-yilning III choragida passiv tashqi savdo balansi 6,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi va 2017-yilning I choragidagi ko`rsatkichga nisbatan 2,4 barobar oshgan.

O`zbekiston jahonning 193 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (18,1 %), Rossiya Federatsiyasida (15,7 %), Qozog`istonda (8,0 %), Koreya Respublikasida (6,5 %), Turkiyada (6,0 %), Germaniyada (2,3 %) va Qirg`izistonda (2,0 %) qayd etilgan.

O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2019-yil  
yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari, ulush %)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulush, %
Xitoy Xalq Respublikasi	7 620,9	2 519,0	5 101,9	18,1
Rossiya Federatsiyasi	6 626,9	2 492,5	4 134,4	15,7
Qozog`iston	3 367,8	1 429,7	1 938,0	8,0
Koreya Respublikasi	2 755,4	93,5	2 661,8	6,5
Turkiya	2 525,2	1 203,6	1 321,6	6,0
Germaniya	980,1	53,9	926,2	2,3
Qirg`iziston	829,1	679,0	150,0	2,0
Afg`oniston	618,0	615,1	2,9	1,5
AQSh	596,2	29,1	567,1	1,4
Turkmaniston	541,9	145,1	396,8	1,3



Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg`iz Respublikasi va Qozog`iston kabi qo`shni davlatlar bilan TSAda so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iz Respublikasi va Turkmaniston bilan 3 barobarga hamda Tojikiston va Qozog`iston bilan 2 barobarga oshdi. Afg`oniston bilan tashqi savdo yiliga 600 mln. AQSh dollari darajasida saqlanib qolmoqda.

Qirg`iz Respublikasi, Tojikiston va Afg`oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini mamlakatning tashqi savdodagi faoliyatini ijobiy natija sifatida baholash mumkin.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Koreya, Turkiya va Germaniya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Asosiy hamkor-davlatlar qatorida Eron va Fransiya bilan faol tashqi savdo balansi ta`minlangan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg`oniston (612,1 mln. AQSh dollari), Qirg`iziston (529,0 mln. AQSh dollari), Tojikiston (191,5 mln. AQSh dollari), Fransiya (65,7 mln. AQSh dollari) va Eron (15,0 mln. AQSh dollari). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2019-yil  
yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari, ulush %)



O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI-  
NING YIRIK  
HAMKOR-  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>4 754,2</b>	<b>6 433,5</b>	<b>7 620,9</b>
Eksport	2 025,5	2 875,4	2 519,0
Import	2 728,7	3 558,1	5 101,9
Saldo	-703,2	-682,7	-2 582,9
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>4 728,7</b>	<b>5 655,9</b>	<b>6 626,9</b>
Eksport	2 019,2	2 117,3	2 492,5
Import	2 709,5	3 538,6	4 134,4
Saldo	-690,3	-1 421,3	-1 641,9
<b>Qozog`iston</b>	<b>2 055,8</b>	<b>2 919,6</b>	<b>3 367,7</b>
Eksport	1 057,6	1 352,2	1 429,7
Import	998,2	1 567,4	1 938,0
Saldo	59,4	-215,2	-508,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 387,6</b>	<b>2 159,2</b>	<b>2 755,4</b>
Eksport	143,3	108,7	93,6
Import	1 244,3	2 050,5	2 661,8
Saldo	-1 100,9	-1 941,8	-2 568,2
<b>Turkiya</b>	<b>1 552,5</b>	<b>2 057,6</b>	<b>2 525,2</b>
Eksport	877,8	944,8	1 203,6
Import	674,7	1 112,8	1 321,6
Saldo	203,1	-168,0	-118,0
<b>Germaniya</b>	<b>620,0</b>	<b>778,7</b>	<b>980,1</b>
Eksport	32,5	53,7	53,9
Import	587,5	725,0	926,2
Saldo	-555,0	-671,3	-872,3
<b>Qirg`iziston</b>	<b>253,7</b>	<b>402,8</b>	<b>829,0</b>
Eksport	178,3	269,7	679,0
Import	75,4	133,1	150,0
Saldo	102,9	136,6	529,0



O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI-  
NING YIRIK  
HAMKOR-  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Afg`oniston</b>	<b>617,8</b>	<b>604,6</b>	<b>618,0</b>
Eksport	615,6	602,5	615,1
Import	2,2	2,1	2,9
Saldo	613,4	600,4	612,2
<b>AQSh</b>	<b>215,0</b>	<b>415,0</b>	<b>596,2</b>
Eksport	32,1	36,8	29,1
Import	182,9	378,2	567,1
Saldo	-150,8	-341,4	-538,0
<b>Turkmaniston</b>	<b>177,9</b>	<b>302,8</b>	<b>541,9</b>
Eksport	69,9	59,5	145,1
Import	108,0	243,3	396,8
Saldo	-38,1	-183,8	-251,7
<b>Tojikiston</b>	<b>237,9</b>	<b>390,5</b>	<b>497,0</b>
Eksport	186,1	237,5	344,2
Import	51,8	153,0	152,8
Saldo	134,3	84,5	191,4
<b>Litva</b>	<b>265,7</b>	<b>291,2</b>	<b>466,5</b>
Eksport	6,2	12,6	22,6
Import	259,5	278,6	443,9
Saldo	-253,3	-266,0	-421,3
<b>Eron</b>	<b>325,3</b>	<b>306,8</b>	<b>424,2</b>
Eksport	267,2	172,9	219,6
Import	58,1	133,9	204,6
Saldo	209,1	39,0	15,0
<b>Yaponiya</b>	<b>166,2</b>	<b>707,5</b>	<b>413,6</b>
Eksport	14,5	18,8	27,8
Import	151,7	688,7	385,8
Saldo	-137,2	-669,9	-358,0



O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI-  
NING YIRIK  
HAMKOR-  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Italiya</b>	<b>175,7</b>	<b>305,5</b>	<b>402,3</b>
Eksport	22,6	28,1	26,6
Import	153,1	277,4	375,7
Saldo	-130,5	-249,3	-349,1
<b>Ukraina</b>	<b>290,0</b>	<b>427,2</b>	<b>377,9</b>
Eksport	106,0	100,1	113,6
Import	184,0	327,1	264,3
Saldo	-78,0	-227,0	-150,7
<b>Latviya</b>	<b>295,0</b>	<b>438,7</b>	<b>374,2</b>
Eksport	82,3	46,3	48,9
Import	212,7	392,4	325,3
Saldo	-130,4	-346,1	-276,4
<b>Hindiston</b>	<b>324,9</b>	<b>286,5</b>	<b>355,5</b>
Eksport	33,8	25,1	25,0
Import	291,1	261,4	330,5
Saldo	-257,3	-236,3	-305,5
<b>Fransiya</b>	<b>257,1</b>	<b>312,8</b>	<b>345,7</b>
Eksport	148,9	196,3	205,7
Import	108,2	116,5	140,0
Saldo	40,7	79,8	65,7
<b>Belarus</b>	<b>182,4</b>	<b>418,5</b>	<b>330,8</b>
Eksport	27,4	41,3	47,6
Import	155,0	377,2	283,2
Saldo	-127,6	-335,9	-235,6



O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mlrd. AQSh  
dollari)




O`zbekiston Respublikasining TSA dinamikasi tahlili 2019-yilda o`ngan yillarga nisbatan eksport va import hajmlarini o`shirishini ko`rsatdi. 2017-yilga nisbatan TSA 1,6 barobarga oshdi va import (1,9 barobar) esa eksportga (1,3 barobar) nisbatan tezroq o`tdi.

TSAning uchdan bir qismini MDH davlatlari tashkil etib, so`nggi yillarga nisbatan asta-sekin kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa o`z navbatida boshqa xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarning kengayayotganidan dalolat bermoqda.

Respublikamizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,6 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi o`tgan yilga nisbatan o`shish 120,0 %ni tashkil etdi.

O`shish bo`lishiga qaramay, MDH davlatlarining ulushi 2018-yilga nisbatan 1,7 % punktga pasaymoqda.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI-NING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, %)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2019-yilda MDH davlatlariga nisbatan tezroq o`tdi (o`shish sur`ati 129,7 %) va jami TSAdagi ulushi 65,4 %ni tashkil etdi.

## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2019-yil yanvar-dekabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o`shishiga ko`maklashadi va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar sonini 5 mingtadan (82 birlikka oshib, 5895 tani tashkil etdi) oshirdi va ular tomonidan 17,9 mlrd. AQSh dollari qiymatdagi (2018-yilga nisbatan o`shish 28,0%) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta`minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 80,1 %ni tashkil etib, ular asosan qimmatbaho metallar (kumush bilan birga 28,5 %), energiya tashuvchi va neft mahsulotlari (14,1 %), to`qimachilik buyumlari (9,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,5 %, aksariyat meva-sabzavot – 6,7 %), rangli metal va undan tayyorlangan buyumlar (5,3 %) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (4,9 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

EKSPORT  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-  
dekabr,  
ulush %)



2,5	Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari
2,0	Qora metal va undan tayyorlangan buyumlar
1,6	Paxta tolasi



**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>17 901,7</b>	<b>6 364,8</b>	<b>11 536,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Paxta tolasi	281,6	1,3	280,4	1,6	0,0	2,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	1 517,5	960,9	556,6	8,5	15,1	4,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	876,9	405,8	471,1	4,9	6,4	4,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	2 524,9	1 403,0	1 121,9	14,1	22,0	9,7
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	349,6	102,8	246,8	2,0	1,6	2,1
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	951,3	153,3	798,0	5,3	2,4	6,9
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	451,4	307,0	144,3	2,5	4,8	1,3
To`qimachilik mahsulotlari	1 626,6	815,1	811,5	9,1	12,8	7,0
Oltin	4 918,3	0,0	4 918,3	27,5	-	42,6
Xizmatlar	3 560,2	1 850,9	1 709,3	19,9	29,1	14,8
Boshqalar	843,5	364,8	478,7	4,7	5,7	4,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning 80 % xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha energiya tashuvchi va neft mahsulotlari (asosan tabiiy gaz) hamda meva-sabzavot va to`qimachilik mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda.

Hisobot davrida MDH mamlakatlari yo`nalishiga mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti nisbatan tezroq o`sdi, faqatgina paxta tolasi eksportida pasayish kuzatildi.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)

Tarkibi	O`tgan yilga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>128,0</b>	<b>127,2</b>	<b>128,4</b>
shu jumladan:			
Paxta tolasi	126,8	39,2	128,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	138,2	131,5	151,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	96,9	106,6	89,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	94,7	118,6	75,6
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	109,1	2,4 b.	88,9
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	111,7	143,4	107,2
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	2,1 b.	2,1 b.	2,3 b.
To`qimachilik mahsulotlari	125,1	114,2	138,3
Oltin	169,0	-	169,0
Xizmatlar	116,0	121,2	110,8
Boshqalar	194,2	2,2 b.	179,0

2019-yilda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2018-yilga nisbatan, energiya tashuvchi va neft mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlaridan tashqari barcha tovar va xizmatlarda o`shish kuzatildi.

**EKSPORT  
TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr, %)**

Tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Paxta tolasi	3,8	1,6	1,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	7,0	7,8	8,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	7,0	6,5	4,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	12,8	19,1	14,1
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	1,2	2,3	2,0
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	6,1	6,1	5,3
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	2,8	1,5	2,5
To`qimachilik mahsulotlari	9,0	9,3	9,1
Oltin	26,0	20,8	27,5
Xizmatlar	19,7	21,9	19,9
Boshqalar	4,6	3,1	4,7

**EKSPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

So`nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida diversifikatsiya kuzatildi. Jumladan, qimmatbaho metallar va meva-sabzavot mahsulotlarining ulushi 1,5 foiz punktga, energiya tashuvchi va neft mahsulotlari ulushi 1,3 foiz punktga, qora metal va buyumlari 0,8 foiz punktga, xizmatlar 0,2 foiz punktga, to`qimachilik mahsulotlari 0,1 foiz punktga oshdi. Aksincha, qimmatbaho metallar, meva-sabzavot mahsulotlari hamda energiya tashuvchi va neft mahsulotlarining ulushi sezilarli oshishi hisobiga qolgan tovar guruhlari bo`yicha ulushida pasayish kuzatilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmining oshishiga barra va qayta ishlangan sabzavotlarning 2018-yilga nisbatan mos ravishda 1,8 va 1,6 barobarga oshgani hamda jami meva-sabzavot tarkibida 46,5 %ni tashkil etishi bilan sezilarli ta`sir o`tkazgan.

Energiya tashuvchi va neft mahsulotlarining oshishi albatta uning tarkibida eng yuqori ulushga ega tabiiy gaz va qayta ishlangan neft mahsulotlari (2018-yilga nisbatan o`shish mos ravishda 13,9 % va 24 %) eksporti hisobiga amalga oshgan.

2019-yil yakunlariga ko`ra yengil avtomobillar eksporti 4,2 barobar, avtobuslar (mikroavtobuslarni qo`shgan holda) va yuk avtomobillari mos ravishda 1,5 va 1,6 barobarga oshgani mashina, asbob-uskuna va ularning qismlari eksporti hajmini oshishiga olib kelgan.

Ba`zi kimyoviy mahsulotlar tarkibidagi mahsulotlarning o`shishiga qaramasdan, plastmassa va undan yasalgan buyumlar eksporti kamayishi hisobiga umumiy kimyo mahsulotlari eksporti kamayishiga olib kelgan.




**EKSPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	2018-yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>		
meva va rezavorlar	658,1	116,1
sabzavotlar	542,4	170,1
bug`doy	21,4	104,6
alkogolli va alkogolsiz ichimliklar	12,9	97,0
qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	47,9	156,0
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>		
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	403,0	88,6
o`g`itlar	137,9	95,9
farmatsevtika mahsuloti	9,8	86,8
karbonat	14,2	94,7
kimyoviy shtapelli tola	19,1	2,2 b.
ammiak	1,8	117,3
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>		
tabiiy gaz	2257,5	93,1
elektroenergiya	101,8	60,9
qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	45,9	117,4
motor moylari	5,9	45,3
tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar	3,9	61,8
<b>Qora va rangli metallar</b>		
mis va mis buyumlari	707,9	113,7
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar	280,2	95,5
rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	243,3	106,3
qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	1,2	83,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>		
simlar va kabellar	72,5	2,9 b.
transformatorlar va akkumlyatorlar	32,1	2,2 b.
elektr zanjirlarni almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	22,7	1,8 b.
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	5,1	134,0
monitorlar va proyektorlar	15,9	147,0
yengil avtomobil	121,5	4,2 b.
avtobuslar va mikroavtobuslar	10,0	148,1
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	13,7	156,9
tirkama va yarim tirkamalar	6,0	1,6 b.
<b>Boshqalar</b>		
to`qimachilik mahsulotlari	1626,6	125,1
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	51,2	41,0
qog`oz, karton va matbaa buyumlari	15,4	89,2
oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	35,7	2,8 b.
shisha va shisha buyumlar	9,0	93,7
sopol buyumlar	20,0	147,2



So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2017-yildagi 32,5 % dan 2019-yildagi 35,6 %ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 64,4 %ni tashkil etdi.


MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulush %)



2018-yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 14,1 %), Rossiya Federatsiyasi (13,9 %), Qozog`iston (8,0 %), Turkiya (6,7 %), Qirg`iziston (3,8 %), Afg`oniston (3,4 %) va Tojikiston (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 50 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

2019-yilda tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan biri bo`lgan Tojikiston eksport ulushi bo`yicha Eronning o`rniga qayta tiklandi. Shu bilan birga, Qirg`iziston yildan-yilga Afg`oniston va Eronni ortda qoldirib, o`z mavqeini mustahkamlamoqda. Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2018-yilga nisbatan 182 davlatdan 179 davlatgacha kamaydi.

RESPUBLIKA  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)



O`ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI-  
NING ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARIGA  
AMALGA  
OSHIRILGAN  
EKSPORT HAJMI  
VA O`SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-  
dekabr)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O`shish sur`ati, %		O`rni	
	2018 r.	2019 r.	2018 r.	2019 r.	2018 r.	2019 r.
Xitoy Xalq Respublikasi	2 875,4	2 519,0	142,0	87,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	2 117,3	2 492,5	104,9	117,7	2	2
Qozog`iston	1 352,2	1 429,7	127,9	105,7	3	3
Turkiya	944,8	1 203,6	107,6	127,4	4	4
Qirg`iziston	269,7	679,0	151,3	2,5 b.	6	5
Afg`oniston	602,5	615,1	97,9	102,1	5	6
Tojikiston	237,5	344,2	127,6	144,9	7	7
Eron	172,9	219,6	64,7	127,0	10	8
Fransiya	196,3	205,7	131,8	104,8	8	9
Turkmaniston	59,5	145,1	85,2	2,4 b.	15	10
BAA	67,5	138,5	146,8	2,1 b.	14	11
Buyuk Britaniya	174,5	131,8	3,1 b.	75,5	9	12
Ukraina	100,1	113,6	94,4	113,4	12	13
Pokiston	32,6	97,6	3,2 b.	3,0 b.	24	14
Koreya Respublikasi	108,7	93,5	75,8	86,1	11	15
Germaniya	53,7	53,9	165,2	100,4	16	16
Ozərbayjon	35,6	51,8	129,1	145,5	23	17
Latviya	46,3	48,9	56,3	105,6	17	18
Belarus	41,3	47,6	150,9	115,1	19	19
Polsha	37,9	40,6	103,7	107,2	21	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya tashuvchi va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

**RESPUBLIKA-  
NING AYRIM  
DAVLATLARI  
BILAN EKSPORT  
TARKIBI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tarkibi	XXR		Rossiya Federatsiyasi		Qozog`iston		Turkiya	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>2 875,4</b>	<b>2 519,0</b>	<b>2 117,3</b>	<b>2 492,5</b>	<b>1 352,2</b>	<b>1 429,7</b>	<b>944,8</b>	<b>1 203,6</b>
shu jumladan:								
<b>Paxta tolasi</b>	71,0	141,4	2,8	0,7	-	-	9,2	12,8
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	69,4	76,9	186,5	198,3	410,1	302,6	26,8	102,8
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>	131,2	132,8	170,7	175,3	102,3	119,0	105,6	57,3
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	1 286,7	917,2	583,5	915,6	536,6	438,7	2,4	14,9
<b>Qora metallar</b>	3,5	0,6	3,0	2,9	22,1	73,4	6,0	6,1
<b>Rangli metallar</b>	154,2	70,0	54,6	60,3	14,5	49,0	554,4	686,8
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	4,6	3,4	54,8	80,1	44,4	143,5	35,0	67,9
<b>To`qimachilik mahsulotlari</b>	326,7	437,6	542,8	592,3	39,2	39,7	119,8	196,7
<b>Xizmatlar</b>	710,2	694,6	480,5	425,2	109,3	129,4	78,9	53,9
<b>Boshqalar</b>	117,9	44,6	38,1	41,9	73,6	134,4	6,6	4,4


2019-yilning oylari orasida eksportni amalga oshirishda mavsumiylik aniqlandi. Unga ko'ra, faol eksport faoliyati aprel oyiga to'g'ri kelib o'tgan oyga nisbatan 1,7 barobar o'sish sur'ati bilan 2019-yilning iyuni oyida eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, hamda yil ohiriga kelib nisbiy faollik kuzatildi.

**TOVARLAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(o'tgan oyga  
nisbatan %  
hisobida)**



Xizmatlar eksporti hajmi 3560,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 19,9 %ini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 16,0 %ga o'sganligi kuzatildi. So'nggi uch yilda 1,4 barobarga o'sish hisobiga xizmatlarning jami eksportdagi ulushi 0,1 % punktga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (49,6 %) va turizm (39,7 %) xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**XIZMATLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(yanvar-  
dekabr,  
ulush %)**



**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 1,2 mlrd. dollarga yaqin qiymatli 1,4 mln. tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bu 2018-yilga nisbatan qiymatda – 1,4 va naturada – 1,1 barobar o`sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 542,4 mln. AQSh dollariga teng 816,5 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 658,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 591,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko`rinishidagi o`sish sur`ati o`tgan yilga nisbatan mos ravishda 170,1 % va 116,1 % ni tashkil etdi).

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg`iz Respublikasi, Qozog`iston, Rossiya va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)**



Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2019-yil umumiy eksportdagi meva va sabzavotlarning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot eksporti qiymatda eng ko`p Qirg`iz Respublikasi hissasiga (jami meva-sabzavot eksportidan 26,7 %), natura ko`rinishida esa Qozog`istonga eksport hajmi 556,5 ming tonnani tashkil etib Qirg`iz Respublikasiga nisbatan 4,4 barobar ko`pni tashkil etmoqda.



MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-  
dekabr)

Davlatlar	2018-yil			2019-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, %	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, %
Qirg`iziston	89,9	80,3	9,1	127,0	320,0	26,7
Qozog`iston	598,1	392,3	44,3	556,5	283,0	23,6
Rossiya Federatsiyasi	238,9	166,3	18,8	245,1	160,6	13,4
Turkiya	23,5	25,1	2,8	65,1	99,3	8,3
Pokiston	29,8	22,2	2,5	76,2	78,8	6,6
Afg`oniston	73,4	53,2	6,0	45,5	57,5	4,8
Xitoy Xalq Respublikasi	66,9	46,2	5,2	55,3	48,5	4,0
Ukraina	15,1	9,0	1,0	55,2	32,4	2,7
Tojikiston	5,8	3,6	0,4	21,0	13,5	1,1
Eron	13,0	10,0	1,1	16,2	12,4	1,0
Iroq	6,1	6,2	0,7	20,5	12,3	1,0
Belarus	8,5	7,7	0,9	14,3	10,6	0,9
BAA	11,6	5,7	0,6	27,5	9,7	0,8
Turkmaniston	9,5	7,5	0,8	8,5	9,5	0,8
Ozarbajjon	4,3	4,9	0,6	6,5	7,3	0,6
Germaniya	2,7	5,6	0,6	2,9	6,6	0,6
Boshqa mamlakatlar	51,8	40,0	4,5	64,1	38,3	3,2

\*-qiymat ifodasidan

**TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI**

To`qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom ashyosini o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin. Jumladan, joriy yilda 1,6 mlrd. AQSh dollarli to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,1 %ni tashkil etdi va o`rgan yilga nisbatan 1,3 barobarga o`tdi.

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (56,9 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (21,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 432 turga yaqin to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 59 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tovar nomi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Paxtadan yigirilgan ip	631,3	726,6	926,1
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	268,7	289,7	354,5
Naqshli mato	50,4	65,5	84,8
Ipak va ipak mahsulotlari	30,9	49,9	71,8
Paxtadan gazlamalar	53,8	65,7	69,2
Boshqa to`qimachilik mahsulotlari	31,7	36,1	51,9
Gilamlar	34,4	31,0	32,0
Paxta mahsulotlari	24,7	26,8	27,4

Respublikaning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (592,3 mln. AQSh dollari – 36,4 %), Xitoy (437,6 mln. AQSh dollari – 26,9 %) va Turkiya (196,7 mln. AQSh dollari – 12,1 %) davlatlariga tegishli.

DAVLATLAR  
KESIMIDA  
TO`QIMACHI-  
LIK MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya Federatsiyasi	511,6	542,8	592,3
Xitoy Xalq Respublikasi	217,0	326,7	437,6
Turkiya	109,4	119,8	196,7
Qirg`iz Respublikasi	53,3	70,2	96,6
Eron	24,1	25,3	55,2
Qozog`iston	46,1	39,2	39,7
Ukraina	13,6	18,8	29,5
Polsha	21,0	22,3	25,3
Belarus	17,3	23,3	24,1
Tojikiston	5,1	8,7	13,7
Bangladesh	21,1	19,2	12,3
Misr	1,1	3,2	12,1
Italiya	3,7	7,0	11,4
Ozarbayjon	3,7	5,9	10,9
Pokiston	1,1	5,5	10,4
Germaniya	2,5	4,6	7,3
Koreya Respublikasi	29,7	7,8	7,0
Moldova	3,3	2,8	6,4
Vetnam	9,4	5,0	5,5
Afg`oniston	6,9	6,4	4,7




## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2019-yil yanvar-dekabr)

Respublikada import o`rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag`batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so`nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 24,3,0 mlrd. AQSh dollari (2018-yilga nisbatan 124,9 %) tashkil etib, valyutani erkinlashtirish boshlangan davrga nisbatan 1,7 barobarga oshgan.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (43,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,2 %) hamda xizmatlar (10,0 %) hisobiga to`g`ri keldi.

IMPORT TARKIBI  
(ulush %)



3,8 Energiya manbalari va neft mahsulotlari

1,1 Rangli metal va undan tayyorlangan buyumlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilda import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilga nisbatan 4,5 mlrd. AQSh dollariga ko`payib va 21,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi va xizmatlar importi esa 2,4 mlrd. AQSh dollarga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>24 276,1</b>	<b>8 210,0</b>	<b>16 066,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari	1 885,1	1 248,2	636,9	7,8	15,2	4,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	3 200,4	661,8	2 538,6	13,2	8,1	15,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	928,1	878,5	49,6	3,8	10,7	0,3
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	1 843,4	1 190,0	653,4	7,6	14,5	4,1
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	273,5	169,0	104,5	1,1	2,1	0,7
Mashina va asbob-uskunalar	10 635,2	1 300,4	9 334,8	43,8	15,8	58,1
Xizmatlar	2 421,8	1 071,4	1 350,4	10,0	13,0	8,4
Boshqalar	3 088,7	1 690,8	1 397,9	12,7	20,6	8,7

Importning eng katta ulushi, jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari (94,7 %), rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (61,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari (66,2 %), shuningdek qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar (64,6 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (87,8 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (79,3 %) hissasiga to`g`ri keladi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O`SISH  
DINAMIKASI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Tarkibi	2018-yilga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>124,9</b>	<b>115,0</b>	<b>130,6</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	119,2	108,9	146,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	126,6	136,9	124,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	105,5	104,2	135,9
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	116,7	113,5	123,0
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	141,3	118,4	2,6 b.
Mashina va asbob-uskunalar	127,1	114,3	129,1
Xizmatlar	113,9	108,6	118,4
Boshqalar	141,4	124,9	168,4

2019-yilda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2018-yilga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 36,1 % dan 43,8 % gacha o`sd, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari importining ulushi esa 9,1 % dan 7,8 %ga va 15,3 %dan 13,2 %ga kamaydi.

**IMPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr, %)**

Tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,1	8,1	7,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	15,3	13,0	13,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	5,3	4,5	3,8
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	8,1	8,1	7,6
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	1,0	1,0	1,1
Mashina va asbob-uskunalar	36,1	43,0	43,8
Xizmatlar	14,1	10,9	10,0
Boshqalar	11,0	11,2	12,7

**IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLARI  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Umuman olganda, barcha mahsulotlarda o`shish kuzatilishiga qaramasdan, ularning (mashina va asbob-uskunalaridan tashqari) jami importdagi ulushi pasaymoqda.

So`nggi uch yildagi umumiy import hajmining o`shishi (1,7 barobar) fonida xizmatlar importining mutloq o`shishiga qaramasdan (1,2 barobar) uning jami importdagi ulushi kamaymoqda (4,1 % punkt).

Oziq-ovqat mahsulotlarining importi hajmlarining o`shishiga shakar xom-ashyosi (6,1 barobar o`shish), kakao, un va qandolat mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar) (1,7 barobar), sitrus (2,2 barobar) hamda go`sht va sub oziq-ovqat mahsulotlari (2,1 barobar) importining oshgani ta`sir qilgan.

Energiya tashuvchi va neft mahsulotlari importi oshishiga esa qayta ishlangan neft mahsuloti importining oshganligi (125 barobar) bevosita ta`sir etgan.

Qishloq xo`jaligi uchun mashina va asbob-uskunalar (90 barobar), avtomobillar uchun uskuna va ehtiyot qismlar (87 barobar), ekskavator va buldozerlar (119 barobar) hamda tibbiy asbob va moslamalarning (146 barobar) nisbatan yuqori o`shishi hisobiga jami import hajmini oshishiga olib keldi.

Yuqori hajmlarda import qilingan mahsulotlar tarkibida mamlakat ichida mahalliyashtirilishi mumkin bo`lgan mahsulotlar ham mavjud.

Importning o`shishiga ta`sir etgan asosiy omillardan biri bu mamlakatga qilinayotgan investitsiyalarning asosiy qismi bo`lgan mashina va asbob-uskunalarining importining oshishi natijasida, uning jami importdagi ulushi 43,8 %ga yetdi (so`nggi uch yildagi importdagi ulushining o`shishi 7,7 % punkt).

**IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLARI  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	2018-yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>		
shakar xomashyosi	193,0	6,1 b.
bug`doy	364,3	132,5
un	86,2	79,7
tayyor hayvon yemi	130,8	98,7
choy	46,4	98,1
kartoshka	25,6	59,2
kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar	61,5	173,3
qandolat mahsulotlari	76,4	168,1
pista moyi	177,2	145,0
margarin	35,2	121,8
sitrus mevalar	46,6	2,2 b.
go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	39,8	2,1 b.
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>		
farmatsevtika mahsulotlari	926,8	108,8
plastmassa va plastmassa buyumlar	811,7	141,4
kauchuk va rezina mahsulotlari	246,2	122,6
organik kimyo birikmalari mahsuloti	159,9	109,3
parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	214,3	149,5
bo`yoq ekstraktlari	159,6	121,6
o`simliklarni o`stirish regulyatorlari	71,7	139,2
kimyoviy iplar	72,4	111,1
kimyoviy shtapelli tola	60,8	102,4
aralashmalar va erituvchilar	78,3	158,3
kaustik soda	32,2	94,1
kimyoviy va mineral o`g`itlar	60,9	3,8 b.
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>		
neftni qayta ishlash mahsulotlari	623,9	125,0
neft xomashyosi	100,5	38,5
aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	23,6	100,6
elektroenergiya	62,6	136,7
<b>Qora va rangli metallar</b>		
qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	1843,4	116,7
rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	273,5	141,3


**IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLARI  
TARKIBI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	2018-yilga nisbatan, %
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>		
Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va uskunalar	841,1	87,6
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	467,1	84,3
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	411,3	96,5
konditsionerlar, sovtgichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	702,1	156,2
qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunolari	264,5	90,0
tuproqni maydalovchi uskunalar	538,7	174,0
vakum va suyuqlik nasoslari	523,6	1,8 b.
uchuvchi apparatlar	398,4	2,1 b.
ekskavatorlar va buldozerlar	364,6	119,1
kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrafugalar	443,7	132,5
yengil avtomobillar	440,1	137,9
shinalar va pokrishkalar	202,3	104,6
tibbiy asbob-uskunalar	282,8	146,5
elektron dvigatellar, generatorlar va transformatorlar	358,5	78,0
neft-gaz quvurlari uchun truba va trubkalar	221,3	101,3
oziq ovqatsanoati uchun uskunalar	69,3	59,5
<b>Boshqalar</b>		
yog`och va yog`och buyumlar	611,9	98,5
qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar	274,6	126,1
sement	153,5	86,9
rangli metall konsentartlari va rudalari	345,1	2,5 b.
tosh, gips va keramik buyumlar	180,7	2,0 b.
qurilish majmualari konstruksiyasi	423,4	2,3 b.
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	85,9	119,6
boshqa tirik o`simliklar	31,0	83,6
asbest	32,5	69,1
qimmatbaho bo`lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	44,8	131,5
o`rindiqli mebellar	49,9	160,1
o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari	35,2	138,9
yirik shoxli mollar	122,5	2,0 b.
tirik uy parrandalari	9,7	104,8

Keyingi o`rinlarda dori vositalar va farmatsevtika mahsulotlari (100 barobardan ortiq), birlamchi plastmassa mahsulotlari (1,4 barobar) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (119,2 %) hisobiga to`g`ri kelgan. Bu esa o`z navbatida, ushbu turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar tomonidan import qilingan mahsulotlar bilan yetarli darajada raqobatbardosh emasligidan yoki ushbu tovarlarga bozor to`yinmaganligidan dalolat bermoqda.

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi barqaror nisbati saqlanib qolmoqda va joriy davrda ushbu ko`rsatkich 33,8:66,2 munosabatni tashkil etdi.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLAT-  
LARDAN  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulush %)



Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 17,0 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Xitoy umumiy import hajmida 21,0 % ulushi bilan birinchi o`rinni egalladi.

TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR-  
DAVLATLAR  
(yanvar-  
dekabr)

Davlatlar	mln. AQSH dollari		o`shish sur`ati, %		o`rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy Xalq Respublikasi	3 558,1	5 101,9	130,4	143,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	3 538,6	4 134,4	130,6	116,8	2	2
Koreya Respublikasi	2 050,5	2 661,8	164,8	129,8	3	3
Qozog`iston	1 567,4	1 938,0	157,0	123,6	4	4
Turkiya	1 112,8	1 321,6	164,9	118,8	5	5
Germaniya	725,0	926,2	123,4	127,7	6	6
AQSh	378,2	567,1	2,1 b.	149,9	9	7
Litva	278,6	443,9	107,4	159,3	12	8
Turkmaniston	243,3	396,8	2,3 b.	163,1	15	9
Yaponiya	688,7	385,8	4,5 b.	56,0	7	10
Italiya	277,4	375,7	181,2	135,4	13	11
Hindiston	261,4	330,5	89,8	126,4	14	12
Latviya	392,4	325,3	184,5	82,9	8	13
Belarus	377,2	283,2	2,4 b.	75,1	10	14
Ukraina	327,1	264,3	177,8	80,8	11	15
Eron	133,9	204,6	2,3 b.	152,8	19	16
Chexiya Respublikasi	64,4	166,2	80,2	2,6 b.	28	17
Tojikiston	153,0	152,8	3,0 b.	99,8	17	18
Qirg`iz Respublikasi	133,1	150,0	176,6	112,7	20	19
Singapur	20,5	146,7	130,4	143,4	44	20

2018-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.



O`zbekiston Respublikasi tomonidan importning jadal o`shishi tufayli Singapur (o`shish sur`ati o`tgan yilga nisbatan 1,4 barobar) 20-o`ringa va Chexiya Respublikasi (o`shish sur`ati o`tgan yilga nisbatan 2,6 barobar) 17 - o`ringa ko`tarilib yirik import hamkor-davlatlar yigirmataligiga kirdi.

2018-yilga nisbatan eksport hajmi kamayishiga (99,8 %) qaramasdan Tojikiston import hajmi bo`yicha eng yirik yigirmatalik hamkor-davlatlar qatorida 17-o`rinda saqlanib qoldi.

Umuman olganda, 2019-yil yakunlariga ko`ra jami 160 ta davlatlardan O`zbekiston Respublikasiga tovar va xizmatlar import qilingan.

RESPUBLIKA  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr,  
%)



Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog`iston, Turkiya, Germaniya va AQSh hamkor davlatlaridan jami import hajmi 16 651,1 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 68,6 % ini tashkil qiladi.


Respublikada investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol. Jumladan, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya va Turkiya kabi davlatlar tomonidan mamlakatga amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmining yuqoriligi natijasida ulardan import qilingan mashina va asbob-uskunalarning jami importdagi ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

TOVAR VA  
XIZMATLAR  
IMPORTNING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(o`tgan oyga  
nisbatan foiz  
hisobida)



Eksportdan farqli o`laroq importning oylar kesimidagi o`zgarishi dinamikasi importning eng yuqori cho`qqisi iyul oyida 2,4 mlrd. AQSh dollari hajmi bilan qayd etilganini kuzatish mumkin.

XIZMATLAR  
IMPORTI  
TARKIBI  
(yanvar-  
dekabr,  
ulushi, %)



- Safarlar (turizm)
- Transport xizmatlari
- Qurilish xizmatlari
- Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari
- Moliyaviy xizmatlar
- Boshqa xizmatlar

2019-yil yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 2 421,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 10,0 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 13,9 % ga oshgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm xizmatlari), transport xizmatlaridan iborat bo`ldi.

2019-yil yakuni bilan 1,3 mlrd. AQSh dollari (2018-yilga nisbatan 10,8 % ga o`shish) miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo`lib, umumiy import hajmining 5,5 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (45,7 %), sement (11,5 %), shisha va shisha buyumlar (5,3 %) hamda asbest (2,4 %) asosiy ulushni egallagan.

**QURILISH  
MATERIALLARI  
IMPORTI  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**



**Qurilish materiallari importi**

- import hajmi 1 330,1 mln. AQSh dollari
- jami import tarkibidagi ulushi 5,5 %
- chorak uchun (mln. AQSh dollari):  
I. 296,1 II. 330,9 III. 377,4 IV. 325,7



**Yog`och va yog`och mahsulotlari**

- import hajmi 607,2 mln. AQSh dollari
- jami import tarkibidagi ulushi 45,7 %
- chorak uchun (mln. AQSh dollari):  
I. 146,7 II. 139,6 III. 177,2 IV. 143,7



**Sement**

- import hajmi 153,5 mln. AQSh dollari
- jami import tarkibidagi ulushi 11,5 %
- chorak uchun (mln. AQSh dollari):  
I. 31,5 II. 56,2 III. 47,4 IV. 18,5



**Shisha va shisha mahsulotlari**

- import hajmi 70,1 mln. AQSh dollari
- jami import tarkibidagi ulushi 5,3 %
- chorak uchun (mln. AQSh dollari):  
I. 15,2 II. 13,2 III. 19,6 IV. 22,1



**Asbest**

- import hajmi 32,5 mln. AQSh dollari
- jami import tarkibidagi ulushi 2,4 %
- chorak uchun (mln. AQSh dollari):  
I. 7,3 II. 6,5 III. 11,5 IV. 7,2

Infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilda qurilish materiallari import hajmi 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Qurilish materiallari importi hajmining o`shishiga (1,5 barobar) yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

**QURILISH  
MATERIALLARI  
IMPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Qurilish materiallari	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Sement	22,5	176,7	153,5
Yog`och va yog`och mahsulotlari	464,3	618,3	607,2
Asbest	31,0	47,1	32,5
Shisha va shisha buyumlar	43,4	60,1	70,1

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi ma`lumotdan ko`rish mumkin.

**MASHINA  
VA ASBOB-  
USKUNALAR  
IMPORT  
QILINGAN  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**



**Xitoy Xalq  
Republikasi**  
3287,5 mln. AQSh dollari  
ulushi - 30,9 %

**Koreya  
Respublikasi**  
1852,0 mln. AQSh dollari  
ulushi - 17,4 %

**Rossiya  
Federatsiyasi**  
943,9 mln. AQSh dollari  
ulushi - 8,9 %

**Turkiya**  
701,8 mln. AQSh dollari  
ulushi - 6,6 %

**Germaniya**  
691,4 mln. AQSh dollari  
ulushi - 6,5 %

Shu bilan, yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**KIMYO  
MAHSU-  
LOTLARI  
VA UNDAN  
TAYYOR-  
LANGAN  
BUYUMLAR  
IMPORT  
QILINGAN  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR  
(2019-yil  
yanvar-dekabr)**



<b>Xitoy Xalq Republikasi</b> 768,2 mln. AQSh dollari ulushi - 24,0 %
<b>Rossiya Federatsiyasi</b> 441,7 mln. AQSh dollari ulushi - 13,8 %
<b>Koreya Respublikasi</b> 264,0 mln. AQSh dollari ulushi - 8,2 %
<b>Turkiya</b> 257,4 mln. AQSh dollari ulushi - 8,0 %
<b>Hindiston</b> 182,9 mln. AQSh dollari ulushi - 5,7 %

Yuqoridagi TSA bo`yicha hamkorlikning asosi so`nggi 3 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 15 ta davlatga, Xususan yuqoridagi yettiliklarga amalga oshirilgan rasmiy tashriflar hamda unda imzolangan ikki tomonlama manfaatli shartnomalarning natijasi deb baholash mumkin.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi boshqarmasi**  
Tel.: 71-230-80-42  
71-230-80-43